BÖLAJAK PEDAGOGLARDA FORSAYT KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRIŞNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI

Sotbarov Atabek Asilbek öğli,
Çirçiq davlat pedagogika universiteti “Pedagogika”
kafedrasi katta öqituvçisi
DOI: 10.67620/yoshlarvailm.0340013

Annotatsiya. Maqolada bölajak pedagoglarda forsayt kompetensiyasini rivojlantirişning nazariy-metodologik asoslari körib çiqilgan. Tadqiqotning maqsadi kompetensiyaning ilmiy mohiyatini aniqlaştiriş, uning tarkibiy-funksional modeli va rivojlaniş darajalarini asoslaş hamda şakllantirişning pedagogik şartlarini belgilaşdan iborat. Işda me’yoriy-huquqiy hujjatlarning kontent-tahlili, 2020-2025-yillarda naşr etilgan xorijiy, MDH va özbek manbalarining qiyosiy tahlili, nazariy umumlaştiriş, modellaştiriş hamda çeklangan sondagi öquv guruhlarida pedagogik kuzatiş usullaridan foydalanildi. Forsayt kompetensiyasining mualliflik ta’rifi taklif etildi, uni pedagogik prognozlaşdan farqlovçi mezonlar aniqlandi. Beş komponentli (kognitiv, prognostik-analitik, operatsion-faoliyat, motivatsion-aksiologik, refleksiv) tarkibiy-funksional model va uç bosqiçli (reproduktiv-başorat, taktik-moslaşuvçan, strategik-kreativ) rivojlaniş iyerarxiyasi işlab çiqildi. Dastlabki kuzatişlarda talabalarning joriy vazifalarga yönaltirilgan fikrlaşi istiqbolli fikrlaşdan ustun ekani, forsayt usullarini amalda qöllaş könikmasi esa eng kam şakllanganligi aniqlandi; bu xulosalar keyingi bosqiçda empirik tekşiruvni talab qiladi. Pedagogik ta’lim innovatsion klasteri kompetensiyani rivojlantiriş uçun mos taşkiliy-metodologik muhit sifatida asoslandi.

Kalit sözlar: forsayt kompetensiyasi, bölajak pedagog, prognostik tafakkur, ssenariyli fikrlaş, strategik loyihalaş, pedagogik ta’lim klasteri, kelajak savodxonligi, refleksiv faoliyat.

Аннотация. В статье рассматриваются теоретико-методологические основы развития форсайт-компетенции у будущих педагогов. Цель исследования - уточнить научную сущность данной компетенции, обосновать её структурно-функциональную модель и уровни развития, а также определить педагогические условия её формирования. В исследовании использованы контент-анализ нормативно-правовых документов, сравнительный анализ зарубежных, постсоветских и узбекских источников за 2020-2025 годы, теоретическое обобщение, моделирование и педагогическое наблюдение в ограниченном количестве учебных групп. Предложено авторское определение форсайт-компетенции и выделены критерии, позволяющие разграничить её с педагогическим прогнозированием. Разработаны пятикомпонентная структурно-функциональная модель (когнитивный, прогностико-аналитический, операционно-деятельностный, мотивационно-аксиологический и рефлексивный компоненты), а также трёхуровневая иерархия её развития (репродуктивно-прогностический, тактико-адаптивный и стратегико-креативный уровни).

Предварительные наблюдения показали, что у студентов оперативное мышление преобладает над стратегическим, а умения практического применения форсайт-методов сформированы в наименьшей степени. Полученные выводы требуют дальнейшей эмпирической проверки. Инновационный кластер педагогического образования обоснован как перспективная организационно-методологическая среда для развития данной компетенции.

Ключевые слова: форсайт-компетенция, будущий педагог, прогностическое мышление, сценарное мышление, стратегическое проектирование, кластер педагогического образования, футурологическая грамотность, рефлексивная деятельность.

Abstract. The article examines the theoretical and methodological foundations for developing foresight competence in future teachers. The study aims to clarify the scientific essence of this competence, to substantiate its structural-functional model and developmental levels, and to identify the pedagogical conditions for its formation. The methods included content analysis of normative-legal documents, comparative analysis of foreign, CIS and Uzbek sources published in 2020-2025, theoretical generalization, modelling, and pedagogical observation in a limited number of study groups. The author proposes a definition of foresight competence and criteria that distinguish it from traditional pedagogical forecasting. A five-component structural-functional model (cognitive, prognostic-analytical, operational-activity, motivational-axiological and reflexive) and a three-level developmental hierarchy (reproductive-predictive, tactical-adaptive and strategic-creative) are developed. Preliminary observations suggest that operational thinking prevails over strategic thinking among future teachers and that the practical use of foresight methods is the least developed skill; these findings require empirical verification at the next stage. The innovative cluster of pedagogical education is substantiated as a suitable organizational and methodological environment for developing this competence.

Keywords: foresight competence, future teacher, prognostic thinking, scenario thinking, strategic design, pedagogical education cluster, futures literacy, reflexive activity.

Kiriş

Ta’lim tizimi noaniqlik, özgarişlar sur’ati va murakkablik kuçaygan davrga ötmoqda, bu esa bölajak öqituvçilarda kelajakni loyihalaş va strategik rejalaştiriş könikmalarini şakllantirişni dolzarb vazifaga aylantiradi. OECD maktab ta’limining 2040-yilgaça bölgan törtta muqobil ssenariysini bayon qilib, kelajakka tayyorlanişda kutilmagan özgarişlarni ham hisobga oliş zarurligini ta’kidlaydi [8]; UNESCO ma’ruzasi esa kelajakka qaratilgan, hamkorlikka tayangan pedagogikani ilgari suradi [9].

Bu talablar pedagog oldiga ikki qatlamli vazifa qöyadi: öqituvçi öz kasbiy faoliyatini kelajak nuqtai nazaridan rejalaştirişi va öquvçilarda ham kelajakka yönaltirilgan fikrlaşni şakllantirişi lozim [10;11]. Aynan şu ikki qatlamlilik forsayt kompetensiyasini an’anaviy prognostik könikmadan ajratadi.

Özbekiston me'yoriy-huquqiy hujjatlarida (Konstitutsiya [1], "Ta'lim töğrisida»gi [2] va «Pedagogning maqomi töğrisida"gi [3] qonunlar, PQ – 4623 [4], PF – 6097 [5], PF – 6079 [6], PF – 158 [7]) "forsayt kompetensiyasi" atamasi qöllanmasa-da, strategik rejalaştiriş, innovatsion faoliyat, raqamli transformatsiya va raqobatbardoşlikka oid vazifalar uning huquqiy asosini taşkil etadi. Kontent-tahlilga köra, bu tuşunçalar ölçanadigan kompetensiya sifatida ifodalanmagan: davlat pedagogdan kelajakka yönaltirilgan faoliyatni kutadi, pedagogik ta'limda esa bunga maqsadli tayyorlaş mexanizmi yetarli emas. Uşbu ziddiyat tadqiqot muammosini belgilaydi.

Adabiyotlar tahlili

Adabiyotlarda forsayt aniq başorat emas, ehtimoliy özgarişlarni tizimli örganib, mos strategiyalar işlab çiqiş yondaşuvi sifatida talqin qilinadi. Manbalar uç yönalişga guruhlandi.

Kelajak tadqiqotlari yönalişi. Tizimli şarhga köra, ta'limga oid kelajak tadqiqotlarini ta'lim bilan boğlovçi asosiy tuşunça kelajak savodxonligidir [12]. Uni akademik kompetensiya sifatida baholaş [13], darajalarini ölçaş vositalarining yetişmasligi [14], kelajaklar xilma-xilligi va iştirok bilan aloqasi [15;16] örganilgan; GreenComp uni muqobil ssenariylarni tasavvur qiliş qobiliyati sifatida kompetensiyalar qatoriga kiritgan [17]. Biroq bu işlarda forsayt asosan öquvçi yoki fuqaro kompetensiyasi sifatida köriladi.

Pedagog tayyorgarligi yönalişi. Öqituvçi faolligi va kelajak haqida fikrlaş boğliqligi [10], öqituvçilar uçun kelajak savodxonligi dasturlari [18] va laboratoriyalari [19], forsaytni öquv dasturlariga kiritiş [20], ssenariy tuziş amaliyoti [21], maktabda kelajak haqida fikrlaşni öqitiş [11] va "Futures Stories Lab" vositasi [22] yoritilgan; kelajakni örganiş kognitiv, hissiy va faol ölçamlar birligida köriladi [23]. Ammo kompetensiya komponentlari va darajalari yaxlit model sifatida berilmagan.

Özbek **tadqiqotlari yönalişi.** Mahalliy işlarda pedagogik ta'lim sifatini oşiriş asosan pedagogik ta'lim innovatsion klasteri doirasida köriladi [24;25]. Bu yönaliş taşkiliy muhitni asoslaydi, biroq forsayt kompetensiyasining mazmuni va tuzilmasi alohida tadqiq etilmagan.

Demak, forsayt kompetensiyasining prognostik, strategik-loyihaviy, hamkorlik va refleksiv tomonlari turli manbalarda parçalangan holda uçraydi [8;12]. Şu bois tadqiqot vazifalari: kompetensiya ta'rifi va farqlovçi mezonlarini aniqlaş; tarkibiy-funksional modeli va rivojlaniş darajalarini asoslaş; rivojlantirişning pedagogik şartlari va taşkiliy-metodologik omilini belgilaş.

Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqotning metodologik asosini tizimli, kompetentli, aksiologik, sinergetik va futurologik yondaşuvlar taşkil etdi. Qöllanilgan usullar: 7 ta me'yoriy-huquqiy hujjatning kontent-tahlili [1–7]; 2020–2025-yillardagi xorijiy (15 ta), MDH (1 ta) va özbek (2 ta) manbalarning qiyosiy tahlili; nazariy umumlaştiriş va modellaştiriş; çeklangan miqdordagi öquv guruhlarida pedagogik kuzatiş. Tajriba-sinov işlari dissertatsiyaning keyingi bobida amalga oşiriladi.

Natijalar

Forsayt kompetensiyasining mualliflik ta'rifi

Tahlil asosida quyidagi mualliflik ta'rifi taklif etiladi: forsayt kompetensiyasi – pedagogning ta'lim sohasidagi tendensiyalar va "zaif signallar"ni tizimli tahlil qiliş, muqobil kelajak ssenariylarini işlab **çiqiş** va baholaş, ular asosida **öz** kasbiy faoliyati hamda **öquvçilarning** ta'lim trayektoriyasini proaktiv loyihalaş, qabul qilingan qarorlar oqibatlarini refleksiv baholaş qobiliyati va tayyorligini ifodalovçi integrativ kasbiy sifat [8;12;17].

Ta'rifning farqlovçi belgilari – köp ssenariylilik, proaktivlik, qadriyatli yönaltirilganlik [12] va pedagogik ikki qatlamlilik (öz faoliyatini ham, öquvçilar tafakkurini ham kelajakka yönaltiriş).

Pedagogik prognozlaş va forsayt yondaşuvining farqlovçi mezonlari

Forsayt kompetensiyasini pedagogik prognozlaşdan ajratiş uçun oltita qiyoslaş mezoni işlab çiqildi (1-jadval).

1-jadval

Pedagogik prognozlaş va forsayt yondaşuvining qiyosiy tavsifi

Mezon	Pedagogik prognozlaş	Forsayt yondaşuvi
Kelajakka munosabat	Yagona, ehtimolli kelajakni başorat qiliş	Muqobil kelajaklar majmuini körib çiqiş
Asosiy metodlar	Trendlarni çiziqli ekstrapolyatsiya qiliş, statistik prognoz	Ssenariylar, Delfi (ssenariy tuziş bilan uyğunlikda), qatlamli sababiy tahlil, yöl xaritasi (roadmapping)
Subyekt pozitsiyasi	Kuzatuvçi, prognozni qabul qiluvçi	Kelajakni faol loyihalovçi
Vaqt ufqi	Qisqa va örta muddat	Örta va uzoq muddat
Faoliyat natijasi	Prognoz	Strategiya va harakatlar rejasi
Hamkorlik şakli	Individual yoki ekspert faoliyati	Manfaatdor tomonlar iştirokidagi jamoaviy faoliyat

Forsayt prognozlaşni inkor etmaydi, balki uni tahliliy bosqiç sifatida qamrab oladi [8]. Delfi kabi usullar ikkala an'anada ham uçraydi [12], şuning uçun farq usulda emas, maqsadda: prognozlaşda yagona ehtimoliy natija, forsaytda esa muqobil ssenariylar va strategik qarorlar izlanadi.

Tarkibiy-funksional model

Tahlil natijasida forsayt kompetensiyasining beş komponentli tarkibiy-funksional modeli işlab çiqildi (2-jadval).

2-jadval

Forsayt kompetensiyasining tarkibiy komponentlari va funksiyalari

Komponent	Mazmuni	Funksiyasi	Manba
Kognitiv	Forsayt, trend, prognoz, ssenariy, raqamli transformatsiya va kelajak tadqiqotlariga oid bilimlar	Axborot-yönaltiruvçi	[17; 23]
Prognostik-analitik	Tendensiyalar va “zaif signallar”ni aniqlaş, muqobil ssenariylarni işlab çiqiş va baholaş	Diagnostik-prognostik	[12; 17]
Operatsion-faoliyat	Delfi, SWOT, PEST, ssenariyli loyihalaş, yöl xaritasi metodlarini qöllaş malakalari	Loyihaviy-instrumental	[8; 20; 21]
Motivatsion-aksiologik	Innovatsiyalarga oçiqlik, kelajak uçun mas’uliyat, hamkorlikka tayyorlik		[9; 16; 23]
Refleksiv	Öz faoliyati natijalarini va kelajak haqidagi qaraşlarini qayta baholaş, rivojlaniş strategiyasini belgilaş	Baholovçi-korreksion	

Motivatsion-aksiologik komponent forsayt faoliyatini işga tuşiradi, kognitiv komponent bilim asosini beradi, prognostik-analitik va operatsion-faoliyat komponentlari faol yadroni taşkil etadi, refleksiv komponent esa forsayt sikli natijalarini qayta baholab, yangi siklni boşlaydi [8]. Hamkorlik barça komponentlarni kesib ötuvçi xususiyatdir.

Rivojlaniş darajalari

Kompetensiyaning uç bosqiçli rivojlaniş iyerarxiyasi manbalar tahlili va OECD tavsiflagan ssenariy bilan işlaş bosqiçlari [8] asosida işlab çiqildi (3-jadval). Kelajak savodxonligini baholaş vositalari hali yetarli emasligi [12;14] sababli darajalar işçi gipoteza sifatida qaraladi.

3-jadval

Forsayt kompetensiyasining rivojlaniş darajalari

Daraja	Tavsifi	Asosiy körsatkiçlar
Reproduktiv-başorat	Boşlanğiç forsayt yondaşuvi	Kelajak haqida umumiy tasavvurlar; tayyor prognozlarni passiv qabul qiliş; forsayt metodlarini faqat namuna asosida qöllaş
Taktik-moslaşuvçan	Özgarişlarga moslaşuv va hamkorlik	“Zaif signallar”ni ilğaş; 2–3 muqobil ssenariy tuziş; jamoaviy modellaştirişda faol iştirok etiş
Strategik-kreativ	Innovatsion va strategik boşqaruv	Ta’lim jarayonining kelajak modellarini mustaqil yaratiş; ssenariylarni qadriyatli mezonlar asosida baholaş; harakatlar rejasi va yöl xaritasini işlab çiqiş

Rivojlantirişning *pedagogik* şartlari

Rivojlantirişning beşta pedagogik şarti umumlaştirildi:

1) forsayt usullarini öquv dasturlariga kiritiş [20];

2) amaliy maşğulot şakllari – kelajak savodxonligi dasturlari, laboratoriyalar, hikoyalaş vositalari [18;19;22];

3) kognitiv, hissiy va faoliyat ölçamlarini birgalikda rivojlantiriş [23];

4) kelajak haqidagi öz tasavvurlarini refleksiv tahlil qiliş [10];

5) klaster orqali real amaliyot bilan aloqa.

Dastlabki kuzatişlar

Çeklangan öquv guruhlaridagi kuzatişlarda talabalarning joriy vazifalarga yönalgan fikrlaşi strategik fikrlaşdan ustunligi, ta'limning 5–10 yillik istiqbolini asoslab başorat qiliş qiyinligi, muqobil ssenariylar örniga bitta, eng ehtimolli variant bilan çeklaniş va forsayt usullarini amalda qöllaş eng sust rivojlangani qayd etildi. Kuzatişlar standartlaştirilgan vosita bilan töplanmagani uçun işçi gipoteza sifatida qaraladi.

Muhokama

Natijalar pedagogik prognozlaş va forsayt örtasidagi farq tamoyil darajasida ekanini körsatadi: birinçisi mavjud tendensiyalarni davom ettirişga, ikkinçisi köp ssenariylilik va proaktivlikka tayanadi [8;12]. Taklif etilgan mezonlar (1-jadval) bu farqni ölçanadigan körsatkiçlarga aylantirişga asos böladi. Operatsion-faoliyat komponentining sustligi forsayt usullarini universitet dasturlariga integratsiya qiliş zaruratini tasdiqlaydi [20]. Model GreenComp kabi doiralarni [17] pedagog kasbi kontekstida prognostik-analitik va operatsion-faoliyat ölçamlari bilan töldiradi.

Model pedagogik ta'lim innovatsion klasteri [24;25] bilan uyğunlaşadi: oliy ta'lim muassasasi forsayt usullarini öqitadi, maktab real muammolar manbai va ssenariylarni sinaş maydoni, ilmiy-metodik markaz "zaif signallar"ni kuzatuvçi, iş beruvçi esa kadrlarga ehtiyoj haqida ma'lumot beruvçi böladi. Kollaborativ forsayt-sessiyalar va pedagogik yöl xaritalari nazariyani amaliyot bilan boğlaydi, maktabdan oliy ta'limga teskari aloqa ("teskari iyerarxiyali impuls") muhim örin tutadi.

Tadqiqot çeklovlari: u nazariy-analitik xarakterga ega va keng qamrovli empirik ma'lumotlarga tayanmaydi; xalqaro manbalarning aksariyati boşqa ta'lim tizimlarida olingani [12] uçun mahalliy kontekst hisobga olinişi kerak.

Xulosa

Birinçidan, forsayt kompetensiyasi noaniqlik kuçaygan ta'lim muhitida pedagogning kasbiy barqarorligini ta'minlovçi integrativ kompetensiyadir [8;9;17]. Ikkinçidan, uning mualliflik ta'rifi va pedagogik prognozlaşdan farqlovçi oltita mezon asoslandi. Uçinçidan, kompetensiya beş komponent uyğunligiga tayanadi, hamkorlik esa ularni kesib ötuvçi xususiyatdir [10;17;23]. Törtinçidan, rivojlantirişning beşta pedagogik şarti ajratildi [10;18;20;23]. Beşinçidan, dastlabki kuzatişlar operatsion-faoliyat komponenti eng sust rivojlanganini körsatdi; bu xulosa empirik tekşiruvni talab qiladi.

Pedagogik ta'lim innovatsion klasteri kompetensiyani şakllantirişning mos taşkiliy-metodologik omili sifatida asoslandi [24;25]; model va daraja mezonlari tajriba-sinov bosqiçi uçun diagnostik asos böladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Özbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Toşkent, 2023.
2. Özbekiston Respublikasining “Ta’lim töğrisida”gi qonuni. 2020.
3. Özbekiston Respublikasining “Pedagogning maqomi töğrisida”gi qonuni. 2024.
4. Özbekiston Respublikasi Prezidentining “Pedagogik ta’lim sohasini yanada rivojlantiriş çora-tadbirlari töğrisida”gi qarori. 2020.
5. Özbekiston Respublikasi Prezidentining “Ilm-fanni 2030-yilgaça rivojlantiriş konsepsiyasini tasdiqlaş töğrisida”gi farmoni. 2020.
6. Özbekiston Respublikasi Prezidentining “Raqamli Özbekiston - 2030” strategiyasini tasdiqlaş va uni samarali amalga oşiriş çora-tadbirlari töğrisida”gi farmoni. 2020.
7. Özbekiston Respublikasi Prezidentining “Özbekiston - 2030 strategiyasi töğrisida”gi farmoni. 2023.
8. OECD. Back to the Future of Education: Four OECD Scenarios for Schooling. Paris: OECD Publishing, 2020.
9. UNESCO. Reimagining Our Futures Together: A New Social Contract for Education. Report from the International Commission on the Futures of Education. Paris: UNESCO, 2021.
10. Varpanen J., Laherto A., Hilppö J., Ukkonen-Mikkola T. Teacher Agency and Futures Thinking. Education Sciences, 2022.
11. Vidergor H.E. Teaching futures thinking literacy and futures studies in schools Futures, 2023.
12. Menéndez-Alvarez-Hevia D., Urbina-Ramírez S., Forteza-Forteza D., Rodríguez-Martín A. Contributions of futures studies to education: A systematic review. Comunicar, 2022.
13. Benavides Rincón G., Díaz-Domínguez A. Assessing futures literacy as an academic competence for the deployment of foresight competencies. Futures, 2022.
14. Karlsen J.E. Futures literacy in the loop. European Journal of Futures Research, 2021.
15. Mangnus A.C., Oomen J., Vervoort J.M., Hajer M.A. Futures literacy and the diversity of the future. Futures, 2021.
16. Haggstrom M., Schmidt C. Futures literacy – To belong, participate and act! An educational perspective. Futures, 2021.
17. Bianchi G., Pisiotis U., Cabrera Giraldez M. GreenComp: The European sustainability competence framework. EUR 30955 EN. Luxembourg: Publications Office of the European Union, 2022.
18. Kazemier E.M., Damhof L., Gulmans J., Cremers P.H.M. Mastering futures literacy in higher education: An evaluation of learning outcomes and instructional design of a faculty development program. Futures, 2021.
19. Kokshagina O., Rickards L., Steele W., Moraes O. Futures literacy for research impact in universities. Futures, 2021.

20. Kononiuk A., Sacio-Szymańska A., Ollenburg S., Trivelli L. Teaching foresight and futures literacy and its integration into university curriculum. Foresight and STI Governance, 2021.

21. Rabinovich P.D., Kremneva V.L., Zavedenskiy K.E., Shekhter E.D., Apenko S.N. Preadaptation of students to innovation activity and formation of practices of futures scenario building. The Education and Science Journal, 2021

22. Sippl C. The Futures Stories Lab: A Tool for Futures Literacy Pedagogy. R&E-SOURCE, 2025.

23. Pouru-Mikkola L., Wilenius M. Building individual futures capacity through transformative futures learning. Futures, 2021.

24. Xodjamkulov U., Botirova S., Shofkorov A., Abdirimova I. Bases of Organizing Cooperation between Educational Institutions through Clusters (on the Example of the Education System of Uzbekistan). Journal of Critical Reviews. 2020.

25. Muhamedov G‘.I., Xodjamqulov U.N. Pedagogik ta’lim innovatsion klasteri: monografiya. Toshkent, 2020.